

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BOTANIKA FANINI O'QITISHDA TALABALARNING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Akbarova Muxayyo Xusanovna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, b.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida botanika fanini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonlarini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari, talaba mustaqil ishini tashkil etish uslubiyoti va bu jarayonda interfaol usullardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kredit-modul tizimi, tayanch mustaqil ta'lim, mustaqil ta'lim topshiriqlari, mustaqil ishning noan'anaviy metodlari.

Bugungi davrda axborot va yangi texnologiyalarning kuchli oqimi kun sayin ortib bormoqda. Shu asnoda insoniyatning ilmlilik darajasi ham o'sib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, insoniyat jamg'arib borayotgan bilimlar ko'lami har 6-7 yilda ikki barobarga ko'paymoqda. Ammo boshqa bir tomondan olib qaraydigan bo'lsak, bunday keskin o'sish mutaxassislarning olgan bilimlari «eskirishi»ga olib keladi. Ekspertlarning tahliliga qaraganda, har yili 15-20% bilimlar amortizatsiyasini kuzatish mumkin. Hozirda ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan ta'limning yangi, zamonaviy konsepsiyasi yurtimizda azaldan targ'ib qilingan «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» degan purma'no qoidani o'zida mujassam etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida⁵ ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan modernizatsiya ishlarining bir yo'nalishi sifatida ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning kredit-modul tizimini joriy etish bilan bog'liq. Kredit-modul tizimida esa talabalarning har biri o'zining qobiliyati va qiziqishidan kelib chiqib individual yo'naltirilgan ta'lim olish va bunda barcha bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish kredit-modul tizimida zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kun ta'lim tendensiyasi ham talabani o'qitish emas, balki talaba o'qishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish g'oyasini ilgari surmoqda. Ya'ni, zamonaviy ta'limdagi an'anaviy «*ta'lim berish*» paradigmasining o'rnini yangi «*ta'lim olish*» paradigmasi egallab bormoqda. Bunda talaba o'qitilayotgan bilimning *passiv iste'molchisi* emas, balki u olingan bilimlar asosida fanga doir har qanday masalada o'z pozitsiyasiga ega, muammoni tahlil eta oladigan, muammoga tanqidiy yondosha oladigan va uning yechimlarini izlay oladigan bilimning *aktiv ijodkoriga* aylanadi.

Talabalarning biologik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini faqatgina o'qitish jarayonini tubdan yaxshilab, ularni mustaqil fikrlashga, izlanishga, o'z qobiliyatlarini o'stirishga bo'lgan, faolligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni qo'llash davrning dolzarb talabi sifatida yuzaga chiqadi.

⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ishning noan'anaviy metodlari ham muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy ta'lim jarayoni bu talabalarga faqat bilim berish, ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olingan bilimlardan foydalanish bo'yicha o'quv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lmay, balki ularga mustaqil bilimlarni qidirib topish, o'zlashtirish shakllari, usullari, vositalarini o'rgatishdan iborat. Talabalarni mustaqil bilimlarini zamon talabiga moslashtirib borish, ma'lumotlar oqimi ichidan kerakligini ajratib olish va ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish sifatli kadrlar tayyorlash jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri sanalishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu jarayonlarning respublikamizda ta'lim va tarbiya sohasining o'ziga xos tarzda shakllanishida tutgan ahamiyatini izchil tarzda tahlil etish bitiruv ishi mavzusining dolzarbligini asoslab beradi.

Ta'lim jarayonini individuallashtirish uchun mustaqil ta'limni asosiy tayanch va qo'shimcha qismlarga ajratish mumkin. *Tayanch mustaqil ta'lim* talabani o'quv dasturiga kiritilgan barcha auditoriya darslari va nazorat-sinov mashg'ulotlariga tayyorgarligini anglatadi. Uning natijasi talabani joriy mashg'ulotlarda nazorat topshiriqlari, test, doklad va boshqa shakldagi joriy nazorat ishlari bilan foal ishtirok etishi orqali namoyon bo'ladi.

Tayanch mustaqil ta'lim shakllari quyidagilardan iborat:

- ma'ruza materiallari, konspekt va o'quv darsliklarini o'rganish;
- mavzuga doir adabiyot va elektron axborot manbalarini izlash, ko'zdan kechirish va o'rganish;
- amaliy mashg'ulotlarda beriladigan uyga vazifalarni bajarish;
- mustaqil ta'lim uchun ajratilgan materialni o'rganish;
- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- nazorat ishi yoki kollokviumga tayyorgarlik;
- attestatsiya va imtihonlarga tayyorgarlik va boshqalar.

Qo'shimcha mustaqil ta'lim talabani mavzuga doir bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga, chuqurlashtirishga, olgan bilimlarini tahlil qilishga qaratiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- grafik ishlar;
- proekt tuzish;
- kurs ishi;
- tadqiqot ishi;
- talabalarning ilmiy-amaliy konferensiya, seminar, olimpiadalarda qatnashishi;
- o'qituvchi tomonidan belgilangan ilmiy manbalar tahlili; - esse, referatlar yozish va boshqalar.

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida mustaqil ta'limning ikki turi mavjud: auditoriya darslaridagi va auditoriya darslaridan tashqaridagi mustaqil ta'lim. *Auditoriya darslaridagi mustaqil ta'lim* qoida bo'yicha dars mashg'ulotlari vaqtida o'qituvchining topshirig'i va nazorati ostida, ammo uning bevosita ko'magisiz

amalg oshiriladi. Auditoriya darslarida o'qituvchining nazorati ostida bajariladigan mustaqil ta'lim turlari asosan quyidagi shakllardan iborat:

- Keys, kazuslarni yechish
- topshiriqlarni bajarish;
- mavzuga oid jamoaviy amaliy o'yinlar va boshqalar.

Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta'lim talaba tomonidan o'qituvchining topshirig'iga binoan uning bevosita ko'magisiz auditoriya darslaridan xoli paytda amalga oshiriladigan ta'lim. U asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- Ma'ruza konspektlar mazmunini o'zlashtirish va uni lektor tavsiya etgan o'quv manbalar negizida shakllantirish (axborot ta'lim resurslari, elektron adabiyotlar).
- Referat, esse yozish;
- Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni chuqur tadqiq etish va boshqalar.

Botanika fanidan mustaqil ta'lim–professor-o'qituvchi tomonidan auditoriyada talabalarga yetkazilgan ma'lumotlardan tashqari mavzuni mazmuniga kiruvchi va aloqador masalalar, axborotni mustaqil o'rganish hamda o'zlashtirishga qaratilgan muhim ta'lim jarayonidir.

Talabalarga tushunarli bo'lishi uchun mustaqil ishlarning kengaytirilgan mavzulari, ularni bajarish algoritmi, axborot manbalari, topshirish shakli va tartibi, baholash mezonlari keltirilgan yo'riqnoma ishlab chiqiladi. Ushbu yo'riqnoma kafedrada muhokama qilinib tasdiqlanadi va talabalarga yetkaziladi.

Botanika fanidan belgilangan mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish uchun talabalarga mahalliy va xorijiy adabiyotlarning mavzuga oid ma'lumotlaridan, multimediyaviy vositalari, jumladan, podkast (audioma'ruza)lar, gerbariyalarni o'rganishda amaliy ishlarni bajarish jarayoni aks etgan videoroliklardan foydalanish taklif etiladi. Adabiyotlardagi har bir mavzuga tegishli betlar, podkast va vodkastlarning URL manzillari yo'riqnomada aks etgan bo'lishi shart. Misol tariqasida "Yuksak sporali o'simliklar haqida umumiy tushuncha, o'ziga xos belgilari, klassifikatsiyasi" mavzusi uchun tayyorlangan yo'riqnomani keltiramiz:

Mavzu: Yuksak sporali o'simliklar haqida umumiy tushuncha, o'ziga xos belgilari, klassifikatsiyasi.

Ishning maqsadi: Yuksak sporali o'simliklar haqida tasavvurga ega bo'lish, sporofit va gametofit hosil bo'lish mexanizmini o'zlashtirish.

Xisobot shakli: shartli belgilar qo'yilgan rasm, sxematik rasm .

Bajarish uchun sarflanadigan vaqt: 6 soat


Mustaqil ish topshirig'i:

Topshiriq №1: Yuksak sporali o'simliklarda nasllar gallanishini sxemasini tayyorlash.


Topshiriqni bajarish uchun metodik ko'rsatmalar:

1. O'.Pratov, I. Shamsuvaliyeva, E. Sulaymonov, X. Axunov, K. Ibodov, V. Mahmudov muallifligidagi Botanika darsligining 65-68 betlarini o'qing;

- <https://ru.pinterest.com/pin/film-25-sek-gametofit-sporofit-warunki-ycia--180073685081027464/> URL manzildagi videorolikni tomosha diqqat bilan tomosha qiling.
- Quyidagi rasimga shartli belgilarni qo'ying va izohlang:



3-rasm. Cho'qmoqli plaun - *Lycopodium clavatum*



4-rasm. Cho'qmoqli planning rivojlanish tsikli

4-rasmni chizing va shartli belgilarni darslikdan foydalanmagan holda qo'ying.

Baholash mezon:

Barcha shartli belgilarni to'g'ri qo'ysa, rasmni chizgan va izohini to'g'ri bergan bo'lsa olsa «5»;

Barcha shartli belgilarni to'g'ri qo'ysa, rasmini chizgan ammo izohlay olmasa olsa «4»;

Shartli belgilarni qisman to'g'ri qo'ysa, rasmni chizgan bo'lsa ammo izohlay olmasa olsa «3»;

Shartli belgilarni to'g'ri qo'ya olmasa, rasmni chizgan ammo izohlay olmasa olsa «2».

Topshiriqni bajarish davomida talaba o'quv axborotini bir necha marta sinchiklab o'rganib chiqishiga to'g'ri kelsin. O'z vaqtida talaba tayyorlayotgan materialning hajmi kam va o'qituvchi tomonidan tekshirish oson bo'lishi talab etiladi. Talaba tomonidan tayyorlanishi kerak bo'lgan material jadvallar, chizmalar, rasmlar, modellar, grafiklar shaklida bo'lishi va yo'riqnomada namunalari keltirilishi maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim muassasalari talabalar mustaqil ta'limning samarasi asosan professor-o'qituvchilarning topshiriqlarni to'g'ri shakllantirish va mustaqil ishlarni nazorat qilish kompetensiyasiga bog'liq;

Respublikamizda talabalar mustaqil ishini to'g'ri tashkil etish uchun professor-o'qituvchilarning mustaqil ta'lim shaklini to'g'ri qo'ya olish kompetensiyasi shakllanishi, metodik ta'minotni, material va texnik bazani yaxshilash kerakligi tavsiya etiladi;

Mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish uchun avvalambor professor-o'qituvchilarning mustaqil ta'limga tegishli yuklama soatlari ulushini ko'paytirish, pedagoglar mustaqil ta'limni samarali tashkil etishi va talabalarni mustaqil ishlarni bajarishga psixologik tayyorlash kerak deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimova. D.R. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim [Matn] : uslubiy qo'llanma / - Toshkent: OOO "Complex Print",2021.-126 b.
2. O'rinov V., Sultonov M., Umarov A. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlarida ECTS kreditmodul tizimi: asosiy tushuncha va qoidalar. – T.: «Ma'naiyat», 2020. – 95 b.
3. O'zbekiston respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qaroriga asosan qabul qilingan “Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom”. Toshkent, 2020 yil.
5. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet.
6. Xayitova Sh.D., Allazov I.S. Talabalar mustaqil ta'lim olishini faollashtirish bugungi davr talabi. Analytical journal of education and development. Vol. 01 Issue. 05.2021. ISSN: 2181-2624. P. 153-158.
7. Matkarimova A.A. Botanika (Yuksak o'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar) Toshkent, 2019. – 111 b.